

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

“DUBYAJ” VA UNI TA’LIM TIZIMIDA QO’LLASH XUSUSIDA

Ashurbayeva Ruqiya Qahhorovna

Buxoro davlat tibbiyot instiuti

O'zbek tili va adabiyoti, rus va ingliz tillari

kafedrasiing v.b. dotsenti

E-mail: ruqiya.qahhorova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim talablaridan biri bo’lgan zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali qo’llash va innovatsion texnologiyalarga asoslangan ta’limni tashkil qilish haqidagi mulohazalar o’rin olgan bo’lib, ta’lim oluvchilarning kreativ, tanqidiy fikrlashi va kommunikativ kompetensiyalarini rivolantirishga mo’ljallangan “dublyaj” usuli haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ta’lim, axborot texnologiyalari, dublyaj, ta’lim maqsadi, kreativ, tanqidiy fikrlash, 3D animatsiyalar, vudeo, ovoz berish, film, ta’lim sifati, kompetensiya

Аннотация: В данной статье содержатся комментарии по эффективному применению современных технологий в образовательном процессе, что является одним из требований современного образования, и организации образования на основе инновационных технологий.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, дубляж, образовательная цель, креатив, критическое мышление, 3D-анимация, видео, голос, фильм, качество образования, компетентность.

Abstract: This article contains comments on the effective application of modern technologies to the educational process, which is one of the requirements of modern education, and the organization of education based on innovative technologies.

Key words: education, information technology, dubbing, educational goal, creative, critical thinking, 3D animations, video, voice, film, quality of education, competence

KIRISH. Bugungi kunda axborot globallashuvi jarayonida, ulkan darajadagi ma’lumotlar bazasidan tegishli va foydali, shu bilan birga ishonchli, asosli, aniq faktlarga asoslangan axborotni qabul qilib, qayta tiklanmas “vaqt resursi”ni yanada samaraliroq tejashning o’ziga xos usul va vositalarini topish o’z yechimini kutayotgan muammolardan biridir. XIX asr “texnologiya asri” deb atalishining o’ziyoq, insoniyat texnologiyada shubhasiz, hech qaysi asrda erishilmagan yutuqlarni qo’lga kiritdi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Bunda

ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan integratsiyalashuvini tashkil qilish, shakllantirish, rivojlantirish ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etganligi erishilgan va erishilayotgan yutuqlarning bosh omili sifatida baholanadi. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan qaror va farmonlar qabul qilingan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.10.2020 yildagi PQ-4851-son, "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.01.2024 yildagi 24-sonida "Respublika davlat ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarga o'quv-uslubiy filmlar yordamida dars o'tish tizimini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarorlarida ham axborot texnologiyalarining dolzarbligini belgilab beradi[1]. Zero, zamonaviy ta'limni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilish davr talabidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ta'lim sifatini takomillashtirish maqsadida ko'plab rang-barang zamonaviy metodlar, usullar, loyihalar taklif qilinyaptiki, bu bevosita har bir ta'lim oluvchiga individual yondashuv imkonini beradi. Ta'lim beruvchi tajribalarda sinalgan, shaxs kamolotida sezilarli ta'sir ko'rsata oladigan, ta'limga ajratilgan har bir daqiqadan unumli foydalanishga qaratilgan, jahon standartlarga mos innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga olgan, yangi metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash zarurligini anglab yetgan. Zero, borliqda to'lib-toshgan kerakli-keraksiz axborot ma'lumotlarini qabul qilayotgan yosh avlodning axborotlar bazasidan to'g'ri va keraklisini farqlay oladigan dunyoqarashini shakllantirish, kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish borasida soha mutaxassislari tomonidan doimiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, ta'lim jarayoniga texnologiyani integratsiyalashga mo'ljallangan "Dubbing project" samarali usul mavjud bo'lib, bu haqida xorij olimlari tomonidan turli tadqiqot ishlari, ta'lim jarayoniga tadbig'i borasida tajribalar olib borilgan. Xususan, Jack Burston (Cyprus University of Technology) "Video Dubbing Projects in the Foreign Language Curriculum "[2], Yen, Tran Thi Hai "Using Movie Dubbing to Improve Natural English Pronunciation Skills English Teaching Forum"[3], Paula Buil Beltrán "Exploring the Impact of Didactic Dubbing on Speaking Skills and Motivation in English for Specific Purposes Settings" (University of Zaragoza) kabilarning ilmiy izlanishlarida dublyaj loyihasining amaliy qiymati va ta'lim jarayonida qo'llanilishi muhimligi kabi ma'lumotlar mavjud[4].

NATIJARLAR. Ta'lim oluvchining kreativlik, nutqiy savodxonlik, kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qila oladigan "Dublyaj" atamasi haqidagi tushuncha izohi berilgan tahlillar bilan turli manbalarga murojaat qildik:

Dublyaj (fransuzcha: *doublage*), **kinofilmlar dublyaji** – filmni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilib yaratilgan yangi fonogramma. Dialoglar tarjimasi mazmun jihatdan to'g'ri, film qahramonlarining so'zlashuviga – og'iz harakatiga mos bo'lishi shart. Tarjimon yoki yangi

matn muallifi, muharrir, rejissyor, aktyor, ovoz operatori, montajchi, matn joylashtiruvchidan iborat ijodiy guruh amalga oshiradi. Avval tarjimon dublyaj qilinadigan filmni sinchiklab ko‘rib, undagi monolog va dialoglar qaysi vaziyatda, qanday holatda talaffuz qilinishini, aniq bilib olishi lozim. Tarjimadan so‘ng muharrir har bir so‘zni aktyor talaffuziga solishtirib tahrir qiladi. Dialog paytida lab harakati aytilayotgan so‘zga muvofiq bo‘lishi lozim. Rejissyor film qahramonlari ovoziga moslab aktyor tanlaydi. Nihoyat aktyor ovoziga turli shovqinlar (avtomobil, samolyot, shamol, dengiz to‘lqini, hayvonlar ovozi va boshqalar) qo‘shib yoziladi. Musiqa va tabiiy tovushlar, odatda, filmning aslidan olinadi, ba‘zan yangi variant ham tayyorlanadi. „O‘zbekfilm“da har yili 70–80 film dublyaj qilinadi. R. Ahmedova, O. Yunusov, T. Tojiyev, O. Bakirova, D. Ismoilova, M. Rahimova, Y. Ahmedov, A. Rafiqov va boshqalar dublyaj san‘atiga munosib hissa qo‘shishgan[5].

Dublyaj “dubl – so‘zidan olingan, ya’ni originalga aynan o‘xshash bo‘lishi kerak. Agar biror joyda obrazga ovoz tembri, aktyorlarning xarakteri yoki lab harakati mos tushmay qolsa dublyaj qoidalariga zid keladi.

Boshqa bir tildagi ovozli filmni ikkinchi bir tilga tarjima qilib, dialoglar tarjimasini film qahramonlari og‘iz harakatiga moslashtirgan holda yaratilgan fonogramma.

Kinofilmlarni omma orasida yoyishda filmlar dublyaji katta ahamiyat kasb etadi. Gazetadan [6].

Ba‘zi hollarda ekrandagi holatga nisbatan so‘z uzun bo‘lsa, dublyor so‘zni tezroq aytishi kerak. G‘. Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish[7].

Bu "dublirovka" (dublyaj deb ham ataladi) - bu kinofilmning nutqini boshqa tilda o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan ovoz chiqarish usulidir. Buning maqsadi, original ovoz kontentiga mos keladigan yangi tildagi nutq bilan to‘ldirishdir. Dublirovka jarayonida original nutq fonogrammasi to‘liq yangilanadi, shunda frazalarning davomiyligi va, imkoniyat bo‘lsa, aktyorlarning artikulyatsiyasi yangi matnga mos keladi [8].

Dublyaj (ovozni qayta yozib olish va aralashtirish kabi bizga ma‘lum) - bu kino va video yaratish jarayonida qo‘llaniladigan yaratishning oldingi jarayoni bo‘lib, unda qo‘shimcha yozuvlar (bizga ma‘lum dubllash) labda sinxronlashtiriladi va yakuniy videoni yaratish uchun original audiosi bilan "aralashtiriladi".

Ko‘pincha bu jarayon filmida qo‘llanilgan daslabki tilni ovozli tarjimalarni taklif qilish bilan amalga oshiriladi. Ovoz muharrirlari barcha kerakli treklarni - dialog, *avtomatik dialogni almashtirish* (ADA), effektlar, foley va musiqalarni tahrirlash va tayyorlagandan so‘ng, dublyaj mikserlari barcha elementlarni muvozanatlashtiradi va tayyor saundtrekni yozib oladi.

Dublyaj va ADA dialog ovozini yaxshilash va almashtirishga qaratilgan o‘xshash jarayonlar bo‘lsa-da, ADA asl aktyorlar audio segmentlarni qayta yozib olish va sinxronlashtirish jarayonidir. Bu kino ijodkorlarga ssenariy, fon shovqini yoki asl yozuv bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa, tushunarsiz dialogni almashtirishga imkon beradi.

"Dubbing" atamasi odatda aktyorlarning ovozlari boshqa ijrochilarning ovozlari bilan almashtirishni anglatadi, ular xalqaro auditoriyalar uchun, odatda original dialogdan farqli ravishda o'z tillarida dialoglarini o'qiydilar.

Agar ovoz animatsiyalar uchun noldan yaratilgan bo'lsa, "asl ovoz" atamasi ishlatiladi, chunki bu media ko'pincha ovoz qo'shilishidan oldin qisman tugallangan bo'ladi. Ovoz ishlari hali ham yaratilish jarayonining bir qismi bo'lib qoladi, shuning uchun u rasmiy ovoz sifatida hisoblanadi.

Kinoda dublyaj tarixi. Kino dublyajining kelib chiqishi 1930-yillarning boshlarida sinxronlashtirilgan ovozning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Dastlab kino muhandislar har xil tillarda gaplashadigan aktyorlar bilan sahnalarni qayta suratga olishgan, bu usul qimmat va ko'p vaqt talab qilgan. Texnologiyalar rivojlanishi bilan aktyorlarning ovozlari maqsadli tilga qayta yozish me'yor bo'lib qoldi. Ushbu o'zgarish filmlarni bir nechta tillarga oson moslashtirish imkonini berdi, bu esa fransuz, nemis va ispan tomoshabinlariga ushbu asarlarni tomosha qilish imkoniyatini yaratdi. Keyinchalik, kadr ortida ovoz va tovush effektlari usullaridagi yutuqlar tomosha qilish tajribasi yaxshiladi.

Dublyajning birinchi urinishlari. Dastlabki dublyaj 1930-yildagi nemis filmi «Der Blaue Engel» (Ko'k farishta) bo'lib, u bir vaqtning o'zida ingliz, fransuz va nemis tillarida dublyaj qilingan. Ushbu innovatsion yondashuv original ovozlarni aktyor ovozlari bilan almashtira olish imkonini ko'rsatdi va og'iz harakatlari va tovush effektlari bilan sinxronizatsiyaning muhim rolini ta'kidladi. Ushbu dublyaj jahon film tijoratining ajralmas qismga aylandi.

Bugungi kunda dublyaj qiluvchi turli-tuman sun'iy intellektga asoslangan dasturlar mavjud. Jumladan, yuksak realizmga ega sun'iy intellekt ovozlari va mintaqaviy variatsiyalar tufayli Yepic eng yaxshi AI dublyaj dasturini taqdim etadi. Yepic zamonaviy nutqni matnga aylantirish texnologiyalari va ovoz sintezini qo'llab-quvvatlash orqali dublyaj sohasida yangi burilish qildi.

MUHOKAMA. Demak, dublyaj bugungi kungacha uzoq yo'lni bosib o'tgan bo'lib, dublyajni samarali amalga oshirishda insoniyat tomonidan zamonaviy dasturlar mavjud. Dublyajning ta'limda integratsiyasini amalga oshirish zamonaviy ta'lim muhitini yaratib beradi, chunki bugungi yosh avlod e'tiboriga turli-tuman internet resurslari taklif qilinayotgan paytda, ularga an'anaviy dars jarayoni zerikarli tuyulishi tabiiy. Bu usulni qo'llashning ahamiyatli jihatlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim oluvchining visual dunyoqarashini rivojlantiradi;
- ta'lim oluvchining uzoq muddatli xotirasini mustahkamlaydi;
- ta'lim oluvchida kreativlik, izlanuvchanlik qobiliyatini takomillashtiradi;
- ta'lim oluvchining muammoli vaziyatlar hal qila olish ko'nikma va malakalari shakllantiradi;

Dublyaj metodini barcha fanlar va sohalar integratsiyasi doirasida amalga oshirish mumkin: biologiya (masalan, hujayralar faoliyatiga doir videolarga ta'lim oluvchilarning ovoz berishi orqali, ya'ni videoda aks etgan jarayon tushuntirilishi orqali mavzu mustahkamlanadi),

anatomya(masalan, inson tana aʼzolarining tuzilishiga doir videolarga taʼlim oluvchilarning tushuntirish asosida ovoz berishi orqali), fizika(masalan, taʼlim oluvchilarning fizikaga doir qonuniyatlar berilgan videoga ovoz berish orqali) kabi fanlarni oʻzlashtirilishida, tillarni oʻrganishda(masalan, ingliz tilini oʻrganishda maʼlum bir syujetdan iborat video qoʻyiladi, taʼlim beruvchilar bu videoga ovoz berib yangi soʻzlarni yodlaydilar), jurnalistika yoʻnalishida (masalan, tabiat tasviri bilan bogʻliq video qoʻyilganda, taʼlim oluvchilar videoda koʻrayotgan tasvirlarni imkon darajasida chiroyli soʻz bilan tasvirlashlari lozim boʻladi, natijada taʼlim oluvchining soʻz boyligi, hozirjavoblari oshadi), tibbiyot sohasida (hamshiralikda bemorni davolash jarayoni aks etgan video yoki 3D animatsiyalarga ovoz berish orqali tibbiyotga doir bilimlar mustahkamlanadi)va h[9].

XULOSA. Umuman olganda, har bir soha yoki fan sohasida 3D animatsiyalarni oʻz ichiga olgan, zamon talabiga javob bera oladigan, zamonaviy va raqobatbardosh tendensiyalarni oʻz ichiga olgan “Dublyaj” usulidan foydalanish samarali natijalarini beradi va xorij tadqiqot ishlarida bu borada yetarlicha ijobiy natijalarga erishilgan. Darsning barcha bosqichlarida, yangi mavzu bayonida, mavzular mustahkamlanishida, mustaqil mavzularni oʻzlashtirishda taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchi uchun birday muhim sanaladi. Shuning uchun har bir fan yoki har bir soha doirasida video, 3D animatsiyalardan iborat axborotlar bazasini yaratish lozimki, bu taʼlim beruvchi va taʼlim oluvchi uchun fan va sohani mukammal oʻrganish, kreativ va tanqidiy fikrlash, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda oʻziga xos qoʻllanma vazifasini oʻtaydi va dublyajni “pedagogikaning yana bir samarali oʻrgatish “asbobi” sifatida qarash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. <https://www.lex.uz/uz/docs/-6755631>
2. Jack Burston Cyprus University of Technology “Video Dubbing Projects in the Foreign Language Curriculum January 2005 CALICO Journal 23(1):79-92. DOI:10.1558/cj.v23i1.79-92”
(https://www.researchgate.net/publication/259442124_Video_Dubbing_Projects_in_the_Foreign_Language_Curriculum)
3. Yen, Tran Thi Hai Using Movie Dubbing to Improve Natural English Pronunciation Skills Yen, Tran Thi Hai English Teaching Forum, v59 n1 p20-25 2021 **Publication Type:** Journal Articles; Reports - Descriptive; Tests/Questionnaires
<https://eric.ed.gov/?id=EJ1297515>
4. Paula Buil Beltrán Exploring the Impact of Didactic Dubbing on Speaking Skills and Motivation in English for Specific Purposes Settings. University of Zaragoza.
https://www.researchgate.net/publication/387006409_Exploring_the_Impact_of_Didactic_Dubbing_on_Speaking_Skills_and_Motivation_in_English_for_Specific_Purposes_Settings
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Dublyaj>
6. <https://izoh.uz/search/dublyaj>